

ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 4 **2026**



ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000



# «MAMUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»  
ТОМ 4, НОМЕР 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»  
VOLUME 4, ISSUE 5



ТОШКЕНТ-2026

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№5 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-5>

Бош мухаррир: | Главный редактор:  
Chief Editor:

**Matyakubov Umidjon Raximovich**  
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель  
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

**Xudonazarov Egambergan Madrahimovich**  
(PhD., dots.)

## TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

### FILOLOGIYA FANLARI

**O'rozboyev Abdulla Durdibayevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Axmedov Oybek Saporboyevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Galiyeva Margarita Rafaelovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

**Cho'ponov Otanazar Otojovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### TARIX FANLARI

**Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev**

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Ashirov Adhamjon Azimbayevich**

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

**Shaydurov Vladimir Nikolayevich**

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

**Abdullayev Utkir Ismoilovich**

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

**Matkarimova Sadoqat Maqsudovna**

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Abdullayev Timur Pulatovich**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Abdalov Umidbek Matniyazovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

**Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

### PSIXOLOGIYA FANLARI

**Shoumarov G'ayrat Baxromovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Kryukova Tatyana Leonidovna**

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

**Karpinskiy Konstantin Viktorovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

**Urazbayeva Dilbar Abdullayevna**

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna**

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

**Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

### IQTISODIYOT FANLARI

**Ruzmetov Baxtiyar**

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Sherov Alisher Bakberganovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

**Voronsova Yuliya Vladimirovna**

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

**Jabborov Umarbek Rustambekovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Cho'ponov San'at Otanazarovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

**Niyazmetov Islambek Masharipovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

## PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

### **Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

### **Adilov Zafar Yunusovich**

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Boltayev Abdurahim Amanovich**

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Zoirov Erkin Xalilovich**

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

### **Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

## TIBBIYOT FANLARI

### **Yuldashev Baxrom Sobirjanevich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Abdullayev Ravshanbek Babajonovich**

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Esamuratov Aybek Ibragimovich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Samandarova Barno Sultonovna**

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Tajiyeva Zebo Baxodirovna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

## ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

### **Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li**

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации  
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением  
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Тадqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**FILOLOGIYA**

1	<b>Svetlana Safarova Satimovna. XORAZM VOHASINING QUYI VOLGA VA JANUBIY SIBIR HUDUDLARI BILAN MADANIY ALOQALARINING TARIXIY MANBALARDA VA TADQIQOTLARDA AKS ETISHI.....</b>	7
2	<b>Yaqubova Shahribonu Davron qizi. HUQUQIY HUJJATLAR TARJIMASIDA ANIQLIK MASALASI.....</b>	13
3	<b>Matyakubov Hakimboy Xamidjonovich. OLAMNING ONOMASTIK MANZARASINI TADQIQ ETISHDA MAKON NOMLARINING STRATIGRAFIK (QATLAMLANISH) TABIATINI ANGLASH.....</b>	15
4	<b>Jabborova Dilnavoz Allaberganovna. MUNIS IJODIDA AN’ANAVIYLIK VA NOVATORLIK.....</b>	19
5	<b>Ёриева Зарифа Хамраевна. ЖОН СТЕЙНБЕК ВА УЛУҒБЕК ҲАМДАМ НАСРИДА ЗАМОН-МАКОН МОДЕЛИ ВА ШАХС РУҲИЯТИНИНГ КЕНГҚАМРОВЛИ БАДИИЙ ТАЛҚИНИ.....</b>	23
6	<b>Narziyeva Inobat Zoirovna. O‘ZBEK ADABIYOTIDA KICHIK YOSHDAGI BOLALAR OBRAZINING PSIXOLOGIK TALQINI.....</b>	27
7	<b>Karimova Shaxnoza Karimovna. Atoyeva Zarinabonu Yigitali qizi. MODERNISTIK SHE’RIYATDA ANAFORANING BADIY VAZIFALARI.....</b>	31
8	<b>Алламуратова Гулсанем Жалгасбаевна. ЯДЕРНЫЕ КОМПОНЕНТЫ ИДИОСТИЛЯ: КОРПУСНЫЙ АНАЛИЗ ПОЭТИКИ БАЛЬМОНТА И БРЮСОВА.....</b>	36
9	<b>Шамсутдинова Галия Шамилевна. КЛАССИФИКАЦИЯ НАЗВАНИЙ ЖИЛИЩ В ХОРЕЗМЕ.....</b>	42
10	<b>Yakubova Matluba Tajibayevna. NEMIS - O‘ZBEK MAQOLLARINING TARJIMA MUAMMOLARI VA EKVALENTLIK MASALASI.....</b>	46

**TARIX**

1	<b>Babadjanov B. “O‘ZBEKISTON SIYOSIY PARTIYALARINING GENEALOGIYASI VA SIYOSIY-G‘OYAVIY ASOSLARI”.....</b>	51
2	<b>Yunusxo‘jayev Habibulla Zafar o‘g‘li XIVA XONLIGI QOZILIK HUJJATLARIDA YER OLDI-SOTDISI VA VAQF IJARA MUNOSABATLARINING HUQUQIY RASMIYLASHTIRILISHI.....</b>	55
3	<b>Atayeva Dilfuza Pulatovna. O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASI ORQALI XOTIN-QIZLARNING IQTISODIY FAOLIGINI OSHIRISH.....</b>	57
4	<b>Babadjanov B. “O‘ZBEKISTON “MILLIY TIKLANISH” DEMOKRATIK PARTIYASINING SIYOSIY STRATEGIYASI”.....</b>	61
5	<b>Yusupov Axmedjon Shonazarovich. OROLBO‘YI ILK SAK QABILALARINING ETNO-MADANIY GENEZISI YUZASIDAN BA‘ZI MULOHAZALAR.....</b>	65
6	<b>Otaxonova Intizor Norimboy qizi. URGANCH DAVLAT UNIVERSITETIDA XALQARO HAMKORLIK ALOQALARINING RIVOJLANISHI.....</b>	71
7	<b>Nurmetov Ismoil Alimbayevich. O‘ZBEKISTONDA TABIIY HUDUDLAR MUHOFAZASI.....</b>	75
8	<b>Садиков. А. И. ҚОРАҚАЛПОҚ ХУДУДЛАРИДА АНЪАНАВИЙ МАКТАБ ВА МАДРАСАЛАР ФАОЛИЯТИ (XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ).....</b>	82
9	<b>Саидов Шавкат Жумабаевич. ХХСРНИНГ ХАЛҚАРО МАЙДОНДА ТАН ОЛИНИШИДА БОБООХУН САЛИМОВНИНГ ЎРНИ.....</b>	88
10	<b>Ermanov Alisher Bekmuratovich. TOTALITAR TUZUM DAVRIDA QORAQALPOQ OXUNLARI FAOLIYATI.....</b>	94

## PEDAGOGIKA

- 1 **Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna.** PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING AHAMIYATI..... 97
- 2 **Radjapova Feruza Abdullayevna.** ADAPTIV SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA PEDAGOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK TASNIFI..... 101
- 3 **Egamova Anbarjon Atanazarovna.** KONSTRUKTIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA MOTIVATSIYA VA EMOTSIONAL-INTELLEKTUAL OMILLARNING O'RNI..... 106
- 4 **Xudayberganov Shuhrat Shavkat o'g'li.** AKADEMIK ERKINLIK SHAROITIDA BO'LAJAK PEDAGOG KADRLARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEKANIZMLARI (XORIJIIY UNIVERSITETLAR TAJRIBASI MISOLIDA).... 111
- 5 **Atajanov Adilbek Yuldashevich.** OTM PEDAGOG XODIMLARINING ISH O'RNIDAGI FUNKSIONAL TAYYORGARLIGINI OPTIMALLASHTIRISHDA WFSIP PEDAGOGIK MODELINING NAZORATLI SINOV NATIJALARI..... 117
- 6 **Kurbonboyev Xudoyshukur Maqsudboy o'g'li.** OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING JISMONIY TAYYORGARLIGINI KROSSFIT MASHG'ULOTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI: DOLZARBLIK, O'RGANILGANLIK DARAJASI VA PEDAGOGIK YECHIMLAR..... 125

## PSIXOLOGIYA

- 1 **Kalandarova Madina Baxadirovna.** TUG'RUQDAN KEYINGI DAVRDA AYOLLARNING ONALIKKA MOSLASHUVIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLAR..... 133
- 2 **Xudoyberganov Doniyorbek Yangiboy o'g'li.** ZAMONAVIY TALABALAR HAYOTIY STRATEGIYALARI VA COPING-XULQ-ATVOR XUSUSIYATLARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK..... 138

## IQTISOD

- 1 **Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna. Raximov G'anisher Alisher o'g'li.** SOLIQQA SOLISH TIZIMLARINING XALQARO TASNIFI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI..... 143
- 2 **Maxmudov Jasurbek Ergashevich.** INVESTITSION SALOHIYAT TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNING HUDUDIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI..... 147
- 3 **Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi. Zakirova Gulnoza Qudratovna.** O'ZBEKISTON MEHNAT BOZORIDA YOSHLAR BANDLIGI: STRUKTURAVIY NOMUTANOSIBLIKLAR VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYALARI..... 153
- 4 **Zaripov Xurshid Zakir o'g'li. Ruzmetova Gulira'no Atabekovna.** RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA MUAMMOLARI..... 157
- 5 **O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich. Niyozmetov Doniyor Rejabbayevich. Bekbergenov G'ayrat Shuxratovich.** O'ZBEKISTONDA RAQAMLI FISKAL BOSHQARUV: DAVLAT BUDJETI SHAFFOFLIGI VA MOLIYAVIY NAZORAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI..... 163
- 6 **Pardayeva Ozoda Mamayunusovna.** TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINING MAZMUN VA MOHIYATIGA ILMIY-NAZARIY YONDOSHUVLAR..... 168

FILOLOGIYA


Svetlana Safarova Satimovna

Ma'mun universiteti

Rus tili kafedrası o'qituvchisi,

E-mail: svetlanasafarova206@gmail.com

**XORAZM VOHASINING QUYI VOLGA VA JANUBIY SIBIR HUDUDLARI  
BILAN MADANIY ALOQALARINING TARIXIY MANBALARDA VA  
TADQIQOTLARDA AKS ETISHI**

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20707370>

**Annotatsiya.** Maqolada Xorazm vohasining Quyi Volga va Janubiy Sibir hududlari bilan qadim zamonlardan XIX asrgacha bo'lgan madaniy va iqtisodiy aloqalari tarixiy manbalar hamda lingvistik tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi. Muallif mavjud manbalarni uchta xronologik guruhga ajratgan holda, xorazm tilining qo'shni xalqlar (komi-udmurt, osetin) tillariga ta'sirini hamda antik davr mualliflari, o'rta asr arab-fors geograflari va yevropalik sayyohlarning asarlaridagi faktik ma'lumotlarni o'rganadi. Maqolada Xorazmning shimoliy hududlar bilan savdo yo'llari va madaniy sintezi masalalari birlamchi manbalar qiyosiy tahlili orqali yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Xorazm vohasi, Quyi Volga, Janubiy Sibir, madaniy aloqalar, xorazmiy tili, lingvistik tadqiqotlar, tarixiy manbalar, savdo yo'llari, Oltin O'rda, Urganch.

---

**Аннотация.** В статье анализируются культурные и экономические связи Хорезмского оазиса с регионами Нижнего Поволжья и Южной Сибири с древнейших времен до XIX века на основе исторических источников и лингвистических исследований. Классифицируются имеющиеся источники на три хронологические группы, исследуя влияние хорезмийского языка на языки соседних народов (коми-удмуртов, осетин), а также анализируются труды античных авторов, средневековых арабо-персидских географов и европейских путешественников. Через сравнительный анализ первоисточников в статье освещаются вопросы торговых путей и культурного синтеза Хорезма с северными регионами.

**Ключевые слова:** Хорезмский оазис, Нижнее Поволжье, Южная Сибирь, культурные связи, хорезмийский язык, лингвистические исследования, исторические источники, торговые пути, Золотая Орда, Ургенч.

---

**Abstract.** The article analyzes the cultural and economic relations of the Khwarezm oasis with the regions of the Lower Volga and Southern Siberia from ancient times to the 19th century, based on historical sources and linguistic research. The author classifies the available sources into three chronological groups, examining the influence of the Khwarezmian language on the languages of neighboring peoples (Komi-Udmurt, Ossetian), and investigates factual data in the

works of ancient authors, medieval Arab-Persian geographers, and European travelers. Through a comparative analysis of primary sources, the article highlights the issues of trade routes and the cultural synthesis of Khwarezm with northern regions.

**Keywords:** Khwarezm oasis, Lower Volga, Southern Siberia, cultural relations, Khwarezmian language, linguistic research, historical sources, trade routes, Golden Horde, Urgench.

Xorazm vohasining qadim zamonlardan XIX asrgacha Quyi Volga va Janubiy Sibir hududlari bilan madaniy aloqalari aks etgan manbalarni uch guruhga bo'lgan holda ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Xususan: 1. Turli tillardagi antik davr manbalari. 2. O'rta asrlar manbalari. 3. XVI-XIX asr oxirlarigacha bo'lgan davr manbalari.

Birinchi guruh manbalari ma'lumotlari taxlili shuni ko'rsatadiki, antik davr Xorazm vohasining Quyi Volga va Janubiy Sibir hududlari bilan madaniy aloqalari aks etgan manba deyarli yo'q. Bu o'rinda asosiy manba lingvistik tadqiqotlar bo'lib, ular asosan madaniy jarayonlar ko'lamini tahlil qilish imkonini beradi. Zero, Xorazm tili va yozuviga qo'shni mamlakatlar xalqlari va uzoq-yaqindan kelgan bosqinchilarning tili va yozuvi ta'sir qilganidek, xorazm tilining o'zi ham turli sabablarga ko'ra boshqa xalqlar tillari rivojiga ta'sir qilgan. Bu ayniqsa, Xorazmdan Shimolda joylashgan hududlarda yashagan xalqlar tillarida kuchliroq namoyon bo'ladi. Shuning uchun, bu hududlarda olib borilgan lingvistik tadqiqotlar, mazkur hududlarda qadimdan yashab kelayotgan xalqlar tillarida bevosita xorazmiy tilidan olingan so'zlarning mavjudligini ko'rsatmoqda.

Lingvistik tadqiqotlar natijasida Perm o'lkasida yashovchi komi – udmurtlar, boshqird va osetin tillaridagi bir qancha so'zlar aynan xorazm tiliga mansubligi isbotlangan. Jumladan, komi – udmurt tilidagi “zarni”(oltin) so'zi, qadimgi xorazmiy tilidagi “zrny(zarni – oltin)” so'zidan olingan bo'lib, boshqa qadimgi Sharqiy eron guruhiga mansub tillarda, masalan, so'g'd (zyrn(zi/ern)) va o'rta-eron (zarr) tillaridagi oltinni bildiruvchi so'zlarga qaraganda xorazmiy so'zi ancha yaqin ekani ma'lum bo'ladi.

Komi tilidagi “ezjs” va udmurt tilidagi “azves” so'zlari ham xuddi osetin tilidagi “ævzīst//ævzestæ” va qadimgi xorazm tilidagi “azīd” yoki “azīž” kabi kumush metall yoki kumush tanga ma'nolarini bildirgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, qadimgi Xorazm tilining osetin tiliga ham kuchli ta'sir qilganligini hozirgi kunda ko'pgina tadqiqotchilar isbotlab berishgan. Shu kabi yana komi tilidagi “nebeg” so'zi ham qadimgi xorazmiy tilidagi “nbyk-nibēk” kabi kitob ma'nosida tushunilgan. Bunday atamalarni ko'plab uchratish mumkin. Ammo, ko'pgina tadqiqotchilar xaligacha Xorazm tili va yozuvining yetarli darajada o'rganilmaganligi uchun, bu masalani to'la-to'kis o'rganish imkoniyati cheklanganligini ta'kidlaydilar.

Yunon mualliflari Gerodot va Strabon asarlarida Xorazmning Volgabo'yi hududlari bilan bog'lovchi savdo yo'llari xususida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, mavzuni yanada kengroq tadqiq qilish imkonini beradi.

Milodiy II asrda yashab o'tgan mashhur yunon geografi Ptolomeyning “Geografiya” asarida ham bu yo'l to'g'risida ma'lumot mavjud bo'lib, unda muallif Azov dengizidan boshlanib, Quyi Volgabo'yi dashtlari va Xorazm orqali janubi-sharqqa tomon o'tuvchi yo'l to'g'risida yozib o'tadi.

Tadqiqot mavzusiga oid o'rta asrlar manbalarida qadimgi davr manbalariga nisbatan yetarlicha ma'lumotlar mavjud. Xususan, arab-fors manbalari asosan arab bosqinidan keyingi davr Xorazmning siyosiy va iqtisodiy tarixi bilan birga madaniy aloqalar haqida ham ba'zi ma'lumotlarni bersa, ba'zi yevropa va rus manbalarida ham Xorazm – Volgabo'yi-Janubiy Sibir aloqalari borasida ma'lumotlar mavjud.

Umuman olganda, yuqorida ta'kidlaganimizdek, Xorazm vohasining qadim zamonlardan XIX asrgacha Quyi Volga va Janubiy Sibir hududlari bilan madaniy aloqalari aks etgan manbalarda asosan Xorazmning shu davrlardagi siyosiy hayoti to'g'risida ma'lumotlar berilgan bo'lsa-da, ular tadqiqot mavzusi yuzasidan to'laqonli va aniq ma'lumotlarni bera olmaydi.

Xorazm vohasining Quyi Volga va Janubiy Sibir hududlari bilan madaniy aloqalari tarixi masalasi tadqiqotlarda nisbatan yaxshi aks etgan bo'lsada bu masalaga oid alohida yozma manba

yoki tarixiy tadqiqotlar mavjud emas. Shu jihatdan olganda, bu o‘rinda eng avvalo yozma manbalar ma‘lumotlarini tahlil qilish lozim. Jumladan, o‘z asarlarini arab tilida yozgan tarixchi va geograflar asarlari jumlasiga Ibn Fadlanning “Risola”, Ibn Havkalning “Kitob ul-masolik va-l-mamalik” (“Yo‘llar va mamlakatlar haqida kitob”), Al-Istaxriyning “Kitob masolik ul-mamolik” (“Mamlakatlarga boriladigan yo‘llar haqida kitob”), Al-Makdisiyning “Ahsan-at-taqosim fi ma‘rifat al-akolim” (“Iklimlarni o‘rganish uchun eng yaxshi qo‘llanma”), Ibn al-Asirning “Al-Komil fit-tarix” (“Mukammal tarix”), Yoqut al-Hamaviyning “Mu‘jam al-buldon” (“Mamlakatlar ro‘yxati”) asarlari kiradi. IX-XIII asrlar fors tilida yozilgan manbalar ustida to‘xtaladigan bo‘lsa, ular ichida eng muhimlari – Mahmud Gardiziyning “Zayn ul-axbor” (“Tarixlar bezagi”) asari, hamda Abulfazl Bayhakiyning “Tarixi Mas‘udiy” asarlari hisoblanadi. Bu asarlarda Xorazm vohasida X – XI asrlarda kechgan siyosiy voqealar bilan bir qatorda iqtisodiy hayot va savdo munosabatlari to‘g‘risida ma‘lumotlar ham o‘z aksini topgan.

O‘z asarlarini arab tilida yozgan tarixchi va geograflar asarlari jumlasiga Ibn Rustaning «Kitob al-aloq an-nafisa» Al-Ya‘qubiyning («Kitob al-buldon» (“Mamlakatlar haqida kitob”), Abubakr al-Balazuriyning “Kitob futuh al-buldon” (Mamlakatlarning zabt etilishi haqida kitob), Ibn Xordabexning “Kitob masalik ul-mamolik” (“Yo‘llar va mamlakatlar haqida kitob”), Tabariyning “Tarix ar-rusul va-l-muluk” (“Payg‘ambarlar, podsholar tarixi”), Ibn Fadlanning “Risola”, Abu Rayxon Beruniyning “Osor ul-boqiya al-qurun holiya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) va “Geodeziya” asari. Al-Istaxriyning “Kitob masolik ul-mamolik” (“Mamlakatlarga boriladigan yo‘llar haqida kitob”), Al-Muqaddasiy (Makdisiy)ning “Ahsan-at-taqosim fi ma‘rifat al-akolim” (“Iklimlarni o‘rganish uchun eng yaxshi qo‘llanma”), Ibn Havkalning “Kitob ul-masolik va-l-mamalik” (“Yo‘llar va mamlakatlar haqida kitob”) asarlari kiradiki, bu asarlar Xorazm savdo markazlari haqida ma‘lumot beruvchi tengi yo‘q birlamchi manbalar hisoblanadi. Bular ichida Istaxriy va Muqaddasiy asarlari ayniqsa ajralib turadi, chunki ularda Xorazm savdo markazlarining tavsifi, Xorazm iqtisodiy geografiyasi, shaharlar va qishloqlarning savdo munosabatlari, bozorlari va karvon-saroylariga katta e‘tibor qaratilgan.

Arab tilidagi manbalar qatoriga yana As-Saolibiyning “Latoif ul-maorif” (“Ajoyib ma‘lumotlar”), Ibn al-Asirning “Al-Komil fit-tarix” (“Mukammal tarix”), as-Sam‘oniyning “Kitob al-arsob” (“Mashhur kishilar haqida kitob”), Yoqut al-Hamaviyning “Mu‘tam al-buldon” (“Mamlakatlar ro‘yxati”) asarlari kirib, ularda Xorazmning XI-XIII asrlardagi savdo munosabatlari to‘g‘risida bir qator ma‘lumotlar mavjud ekanligini ta‘kidlash kerak. Ayniqsa ular ichida Yoqut Hamaviyning asari qimmatli faktik ma‘lumotlarga boyligi bilan boshqa geografik asarlardan ajralib turadi. Eng muhimi uning asari boshqa manbalarga nisbatan chalkashliklardan biroz holi bo‘lib undagi ko‘pgina ma‘lumotlar aniq keltirilgan. IX-XIII asrlar fors tilida yozilgan manbalar ustida to‘xtaladigan bo‘lsak, ular ichida eng qimmatlisi va muhimlari – noma‘lum muallif tomonidan yozilgan «Hudud al-olam», Mahmud Gardiziyning “Zayn ul-axbor” (“Tarixlar bezagi”) hamda Abulfazl Bayhakiyning “Tarixi Mas‘udiy” kabi asarlari hisoblanadi. Bu asarlarda Xorazm savdo markazlariga ta‘rif berilishi bilan birga, Xorazmning qo‘shni o‘lkalar va ko‘chmanchi aholi bilan bo‘ladigan savdo-sotiq munosabatlari hamda shu aloqalar amalga oshirilgan karvon yo‘llari to‘g‘risida qimmatli ma‘lumotlar mavjud.

Umuman, IX-XIII asrlar manbalarining deyarli barchasida Xorazm nafaqat Movarounnahr balki butun Musulmon Sharqining eng taraqqiy qilgan, shaharlari ko‘p, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik gullab-yashnagan, va bu bilan bog‘liq ravishda savdo munosabatlari juda rivojlangan hududlardan biri sifatida ko‘rsatib o‘tiladi. Ammo, bu iqtisodiy va madaniy yuksalish mo‘g‘ul boqini munosabati bilan biroz to‘xtab qolgan. Bir oz vaqtgacha Xorazm shaharlari vayrona ichida qolgan. Shunday bo‘lsada, qadimdan shakllanib, rivojlanib kelayotgan Xorazm shahar madaniyati tarqqiyotini mo‘g‘ul bosqini butunlay to‘xtatib qo‘ya olmadi.

Xorazm vohasi mehnatkashlarining yaratuvchanlik mehnati tez orada, iqtisod va madaniyat bilan bir qatorda, Xorazm savdo markazlarining, ayniqsa uning Oltin O‘rda davlati tarkibiga kirgan qismi (mo‘g‘ul bosqinidan so‘ng Xorazm Oltin O‘rdaga kiruvchi Shimoliy Xorazm va Chig‘atoy ulusiga kiruvchi Janubiy Xorazmga bo‘lingan edi) shaharlarning o‘z qaddini tiklab olishga olib keldi.

Keyingi o'rta asrlar mualliflarining asarlarida Xorazm savdo shaharlari, ayniqsa, Urganch yana o'z davrining eng yirik savdo markazlari sifatida, Xorazm (ko'proq Shimoliy Xorazm) shu davrning eng boy va iqtisodiy mavqei baland hududlardan biri sifatida tilga olinadi. Ammo, mo'g'ul istilosidan keyin to Xiva xoni Abulg'oziygacha yozilgan yozma manbalar juda kamligi va borlarida ham ushbu muammo bir taraflama yoritilganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga bu manbalarda ba'zi qarama-qarshi olimlar o'rtasida Xorazmning XV asrgacha bo'lgan davrda savdo shaharlarining mavqei, holati to'g'risida muayyan ma'lumotlar olishni qiyinlashtiradi.

Mo'g'ul bosqinidan keyingi Xorazm to'g'risida endi Yevropa manbalarida ham ma'lumotlar mavjud. Xususan, XIII-XIV asrlar davomida turli sabablarga ko'ra Xorazmda bo'lgan yevropalik sayyohlar Plano Karpini (1246 yilda kelgan), aka-uka Pololar (1260 yilda kelgan), italyan savdogari Franchesko Balducci Pegoletti (1340 yilda kelgan) asarlarida Xorazm shaharlari, ayniqsa, Urganch to'g'risida qimmatli ma'lumotlar mavjud.

1333 yilda Xorazmga mashhur arab sayyohi Ibn Battuta kelgan. Uning "Tuhfat an-nuzzar fi g'aroyib al-amsar va ajoyib al-afsar" ("G'aroyib shaharlar va ajoyib safarlar tomoshasi haqida tuhfa") asarida Xorazm savdo shaharlari to'g'risida ba'zi ma'lumotlar uchraydi.

XIV asr oxiri – XV asr tarixchilari ichida Ibn Arabshohning "Ajoyib al-maqdur fi axbori Temur" ("Temur sarguzashtlarida taqdir mo'jizalari") asari iqtisod, savdo-sotiq va shaharning boshqa ko'pgina jihatlarini yorituvchi ma'lumotlarga egaligi bilan ajralib turadi. Muallif Xorazmning XIV asrning ikkinchi yarmida iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlardan biri bo'lganligini ko'rsatib o'tish bilan birga, Temur yurishlaridan so'ng Shimoliy Xorazm iqtisodiyotining tushkunlikka tushganligini ham qayd qilib o'tgan.

Yuqoridagi Yevropa va arab manbalarining barchasida Xorazm savdo shaharlarining, ayniqsa Urganchning o'sha davrda rivojlangan eng yirik va boy shaharlardan bo'lganligi ta'kidlangan. Shu bilan birga ulardagi ma'lumotlar shunisi bilan xarakterli va qimmatli mualliflarning barchasi ham o'z davrida Xorazmda bo'lganlar va o'z ko'rgan-bilganlarini yozganlar.

XIII-XV asrlar Xorazm savdo shaharlari to'g'risida ma'lumot beruvchi ikkinchi tur manbalar mavjudki, ular ko'proq ikkinchi bir odamdan eshitgan yoki o'rta asr boshqa manbalaridan olingan ma'lumotlarga tayangan holda yozilgan. Bunday manbalar ichida alohida qimmatga ega bo'lganlaridan mashhur fors geografi Hamdulloh Mustavfiy Qazviniyning «Nuzhat-ul-qulub» («Qalblar oromi»), Shahobiddin al-Umariyning «Kitob masalik al-absar va mamolik al-amsar» («Turli mamlakatlar davlatlari bo'ylab o'tgan yo'llar»), al-Bakuviyning (XIV-XV asrlar) «Kitob talxis al-asar va ajoyib al-malik al-qahhor» («Buyuk podshoning mo'jizalari va yodgorliklari haqidagi kitobning qisqartmasi») nomli asarlaridir. Chunki Hamdulloh Qazviniy asarida Xorazmning XIV asrdagi geografik holati, xususan yirik shaharlari, iqtisodiyoti haqida ma'lumotlar keltirish bilan birga, Xorazmni Eron bilan bog'lovchi karvon yo'llari va ulardagi manzillar, masofalar to'g'risida ham ma'lumotlar mavjud. Al-Umariy va al-Bakuviy asarlarida esa ko'proq Xorazmda shaharlar, bozorlar, ishlab chiqariladigan mahsulot turlari, narx-navo, pul munosabatlari umuman, shaharlar xo'jalik hayoti to'g'risida fikr yuritiladi.

Shuningdek, Shayx al-Birzaliy, an-Nuviyriy<sup>1</sup>, Ibn Xaldun<sup>2</sup> kabi arab-fors va temuriylar davrining Nizomiddin Shomiy<sup>3</sup>, Sharofiddin Ali Yazdiy<sup>4</sup>, Abdurazzoq Samarqandiy<sup>5</sup>, Hofizi Abro<sup>6</sup>, Xondamir<sup>7</sup> kabi mualliflar asarlarida ham XIV-XV asrlar Xorazm savdo shaharlari va ularning xo'jalik hayoti haqida ma'lumotlar uchraydi. Ammo yuqoridagi asarlar kabi ushbu asarlarda ham jiddiy xatolar mavjud bo'lib, ulardan ham ehtiyotkorlik bilan foydalanish lozimligini

<sup>1</sup> Ўша жойда: 152-бет.

<sup>2</sup> Ўша жойда: 385-391-бетлар.

<sup>3</sup> МИТТ, т. с.514-523; Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996.

<sup>4</sup> МИТТ. т.2. -М. -Л., 1938, с.155-168; Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Тошкент: Фан, 1972.

<sup>5</sup> МИТТ, т.1. с.531-535; Абдураззоқ Самарқандий. «Матла'ус-садаи ва мажма'ул-бахрайи». – Тошкент: Фан, 1960 ва 1969.

<sup>6</sup> Бартольд В.В. Хофиз-ижтимоий Абрум его сочинения. - Соч. Т.8. -М.: Наука. 1973.

<sup>7</sup> Хондамир. История монголов. Пер.с.персидского В.Григорьева. – СПб., 1834.

ta'kidlash kerak. Xorazm savdo shaharlarining geografik holati to'g'risida XIV-XV asrlarda tuzilgan Yevropa xaritalari ham ma'lumot beradi. 1367 yilda aka-ukalar Frantsisko va Domeniko Pitsiganilar xaritasida Urganch, 1375 yilgi Katalon atlasida Urganch, Mizdahqon, Xiva, XV asr Venetsiya kosmografi Fra-Mauroning 1459 yilgi xaritasida esa Urganch shaharlari ko'rsatib o'tilgan. Bu xaritalar boshqa manbalar ma'lumotlarini to'ldirib, bu shaharlarning o'rnini to'g'ri belgilashga yordam beradi<sup>8</sup>.

Mo'g'ullar va temuriylar davri Xorazm shaharlari to'g'risida Xiva xoni Abulg'ozixonning XVII asrda yozilgan «Shajarayi turk» asarida ham ma'lumotlar mavjud bo'lib, unda Mizdahqon, Xiva, Hazorasp, Vazir, Bo'ldumsoz, Tirsak va Qumkend kabi shaharlari haqida ma'lumotlar keltirilgan<sup>9</sup>.

Shu bilan birga XVI asr ingliz sayyohi Antoni Jenkinson<sup>10</sup> va XVII asr muallifi Mahmud ibn Valining mashhur geografik asari – «Bahr ul-asror fi manoqib ul-ahyor» («Oliyjanob kishilarning shon-shavkati haqida sirlar dengizi») asarlarida<sup>11</sup> XV asr Xorazm xo'jalik hayoti va shaharlari tasvirlangan. Bular ikkalasida ham XV asrga kelib, Xorazm hayotining bir oz yuqoriga ko'tarilgani ta'kidlanadi.

Xullas, IX-XV asrlar Xorazm savdo shaharlari to'g'risida ko'pgina arab-fors, yevropa va eski o'zbek tilidagi manbalarda ma'lumotlar mavjud bo'lsa-da, ammo umumiy holatda ular savdo shaharlarining xo'jalik hayoti, mavqei to'g'risida atroflicha ma'lumotlar bera olmaydi. Mavzuning kompleks ravishda to'laqonli o'rganilishi esa XIX asrdan boshlagan. Ammo XIX asr rus va yevropalik tadqiqotchilar bu mavzuni o'rganishda ko'proq aynan yuqoridagi manbalar ma'lumotlariga tayanganliklari ma'lum bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Понарядов В.В. Хорезмийские заимствования в пермских языках // Индоевропейское языкознание и классическая филология – XXI // Материалы чтений, посвященных памяти профессора Иосифа Моисеевича Тронского. – СПб.: Издательство Института лингвистических исследований РАН, 2017. – С. 693; Таиров А.Д. Изменения климата степей и лесостепей Центральной Евразии во II–I тыс. до н.э.: Материалы к историческим реконструкциям. – Челябинск: Рифей, 2003. – С. 54; Ягодин В.Н. К вопросу о «савроматской» миграции VI–V веков до нашей эры на юго-восточный Устюрт. // Этнические взаимодействия на Южном Урале: сб. науч. тр. / отв. ред.: А.Д. Таиров, Н.О. Иванова. – Челябинск: Рифей, 2013. – С. 192.

2. Абаев В.И. Историко-этимологический словарь осетинского языка. Т. I. – М., - Л.: Изд – во Академии наук СССР, 1958. – 658 с.

3. Понарядов В. В. Хорезмийские заимствования в пермских языках // Индоевропейское языкознание и классическая филология – XXI // Материалы чтений, посвященных памяти профессора Иосифа Моисеевича Тронского. – СПб.: Издательство Института лингвистических исследований РАН, 2017. – С. 695.

4. Древняя и средневековая культура Юго-Восточного Устюрта – С. 148; также: Манылов Ю.П. Некоторые вопросы исторической топографии Северо-Западного Хорезма и торговых отношений с юго и восточной Европой и кочевниками // В кн.: Древняя и средневековая культура юго-Восточного Устюрта. – Ташкент: Фан, 1978. – С. 278-280.

<sup>8</sup> Егоров В.Л. География городов Золотой Орды. //«Советская археология» (СА), 1974, №1, - С. 123.; Брун Ф. Перипл Каспийского моря по картам XIV столетия. //ЗНУ., Т.9. 1879. – С. 23-25 и. карти. Чекалин Ф.Ф. Нижнее Поволжье на карте космографа XV в. Фра-Маура. //ТСУАК. т. II., вып.2. - Саратов, 1890, карта.

<sup>9</sup> Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи турк. - Тошкент: Чўлпон, 1992, 122-125-бетлар.

<sup>10</sup> Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию 1558-1560 гг. //«Английские путешественники Московском государстве в XVI в». - Л.: Наука, 1938.

<sup>11</sup> Махмуд Ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (География). // Введение, пер., примеч. Указатели Б.А.Ахмедова. - Ташкент: Фан, 1977.

---

5. Мамбетуллаев М.М. О торговых связях города Хорезма // Города и каравансарай на трассах Великого Шелкового пути // Тезисы докладов Международного семинара ЮНЕСКО. – Ургенч, 1991. – С. 44.

# «MAMUN SCIENCE» JURNALI

## ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

### Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

### Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

### Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].